

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li

THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA:

THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS 9-13

Xurramov Xamid Bobokul o'g'li

AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN? 14-18

Zikirova Maxprat Soliyevna

HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI

VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI 19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Амбарцумян Анастас Алексеевич

СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ

ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА 26-38

Rajabov Alibek Xushnudbekovich

ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIIY-IQTISODIY

RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI 39-46

Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna

OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES

IN TEXTILE ENTERPRISES 47-52

Shixiyev Raxim Muhammedovich

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING

RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

ISTIQBOLLARI 53-60

Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK

VA STATISTIK TAHLILI 61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Navro'zova Gulchehra Nigmatovna

BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI 67-70

Yuldasheva Diloram Yuldashevna

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING

DOLZARB MASALALARI 71-74

Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI 75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Ayimbetova Zamira

BADIIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH

VA TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI 81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i> ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI	88-92
<i>Петросянц Эрнст</i> СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i> NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i> ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Firuz Muxitdinova</i> JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILYI MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i> NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i> IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i> FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i> ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING QONUN IJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i> JINOYATLARNI OLDINI OLIISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i> NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i> VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185
--	---------

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO
TA‘SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025
Accepted: 30 August 2025
Published: 15 September 2025

Article / Original Paper

SOME ASPECTS OF THE PROBLEMS IN JUDICIAL PRACTICE REGARDING THE RECOVERY OF DAMAGES CAUSED TO THE ENVIRONMENT IN CIVIL COURTS

Umarova Barno Akbutaevna

Head of Department of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences, Independent Researcher

Abstract. This article analyzes practical problems arising in the process of recovering damages caused to the environment in civil courts. In particular, it highlights cases of claims being left without consideration, unlawful reduction of damage amounts, and incomplete protection of state interests in the practice of authorized state bodies and courts. National legal norms are compared with the experience of foreign countries, substantiating the necessity of mandatory participation of the prosecutor. Furthermore, the issues of increasing the effectiveness of identifying and recovering environmental damages through the introduction of artificial intelligence technologies are analyzed from a scientific and theoretical perspective, and proposals and recommendations for legal reforms are developed.

Keywords: environment, civil court, damage recovery, prosecutor's participation, judicial practice, state interests, legislation, environmental rights, judicial control, artificial intelligence.

FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI

Umarova Barno Akbutayevna

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i,
yu.f.n., mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik sudlarida atrof-tabiiy muhitga yetkazilgan zararlarni undirish jarayonida yuzaga kelayotgan amaliy muammolar tahlil qilingan. Xususan, vakolatli davlat organlari va sudlar amaliyotida da'volarning ko'rmasdan qoldirilishi, zarar miqdorining noqonuniy kamaytirilishi, davlat manfaatlarining to'liq himoya qilinmasligi kabi holatlar yoritilgan. Milliy qonunchilik normalari xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy o'rganilib, ayniqsa prokuror ishtirokini majburiy belgilash zarurati asoslangan. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish orqali ekologiyaga yetkazilgan zararlarni aniqlash va undirish samaradorligini oshirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan hamda huquqiy islohotlar uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: atrof-tabiiy muhit, fuqarolik sudi, zararni undirish, prokuror ishtiroki, sud amaliyoti, davlat manfaatlari, qonunchilik, ekologik huquqlar, sud nazorati, sun'iy intellekt.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N20>

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi" [1] deb belgilangan.

Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad, inson salomatligi uchun, ekologik muvozanatni saqlash uchun, respublikani samarali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona va uni ishdan chiqarmaydigan qilib foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, jonli tabiatning turlari va genetik fondi boyligini saqlab qolish, ekologiya xavfsizligini ta'minlash, tabiat obyektlari bilan bog'liq moddiy madaniy meros obyektlarini asrab qolishdir.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iborat [2].

Bu sohada ham Bosh prokuraturada atrof-tabiiy muhitga nisbatan yetkazilgan zararlarni aniqlash fuqarolik sudlari orqali undirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2022-2023-yil yakunlari bo'yicha tabiatga yetkazilgan zararni undirish bilan bog'liq jami 15,7 mlrd so'mlik 918 mingta da'vo arizalar fuqarolik sudlarida ko'rilgan. Ko'rilgan da'volarning qiymati 11,6 mlrd. so'mlik 695 tasi qanoatlantirilgan. 394 mln. so'mlik 10 ta da'vo arizalar rad qilingan, 3 mlrd 481 mln. so'mlik 200 ta da'vo arizalar ko'rmasdan qoldirilgan bo'lsa, 274 mln. so'mlik 13 ta da'vo arizalar ish yuritishdan tugatilgan.

Qiymati 3 mlrd. 481 mln. so'mlik ko'rmasdan qoldirilgan da'vo arizalarning 2,8 mlrd. so'm qiymatidagi 201 tasi bo'yicha sudga qayta murojaat qilinmagan. Qiymati 2,6 mlrd. so'mlik 137 ta da'vo ariza vakolatli davlat organlari vakillari sud majlisiga kelmaganligi sababli ko'rmasdan qoldirilgan.

Misol uchun, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining javobgar G.X.dan tabiatga yetkazilgan 194 mln. so'mlik zararni undirish haqidagi da'vosi da'vogar sudga kelmaganligi sababli fuqarolik ishlari bo'yicha Shahrizabz tumanlararo sudida 08.06.2023-yilda ko'rmasdan qoldirilgan [3].

Tahlillar yana shuni ko'rsatdiki, vakolatli davlat organi o'zi kiritgan da'voni ko'rmasdan qoldirishni so'rab ariza berganligi sababli 1,1 mlrd. so'mlik 102 ta da'vo arizalar ko'rmasdan qoldirilgan.

Bunga misol, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi javobgar L.A.dan 83 mln. so'mlik zararni undirish haqida sudga murojaat qilib, keyinchalik da'voni ko'rmasdan qoldirish haqida ariza berganligi tufayli fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudi tomonidan da'vo ko'rmasdan qoldirilgan [3].

O'rganilgan tahlillar asosida bu toifadagi ishlarning ko'rilishida turli xil amaliyot shakllanganini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, sudlarning da'vo miqdorini kamaytirishga vakolati bo'lmasa-da, ayrim ishlar bo'yicha tabiatga yetkazilgan zarar miqdori sudlarning tashabbusi bilan qonunga zid ravishda kamaytirilgan. Xususan, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi fuqaro Z.X.ga nisbatan sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, daraxtlar va butalarni kesishga moratoriy e'lon qilingan davrda javobgar hokimiyat zaxirasidagi yerda o'sib turgan 3 tup yong'oq va 1 tup tut daraxtini noqonuniy kesganligi bois undan tabiatga yetkazilgan 19 mln. so'mlik zararni undirishni so'ragan. Sud esa da'voni qisman qanoatlantirish haqida xulosaga kelib, zarar

miqdorini 10 mln. so'm etib kamaytirib belgilagan va buning oqibatida tabiatga yetkazilgan 9 mln. so'mlik zarar undirilmay qolgan.

Tabiatga yetkazilgan zarar miqdorini kamaytirish holatlari da'vo kiritgan davlat organlarining faoliyatida ham aniqlangan.

Jumladan, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi fuqaro S.M.dan 35 mln. 3 mlrd. 481 mln. so'mlik zararni undirish haqida sudga da'vo kiritib, sud majlisida o'simlik dunyosiga yetkazilgan zararni javobgarining yoshini asos qilib kamaytirgan. Natijada tumanlararo sudining hal qiluv qarori bilan zarar summasi 3 mln. 590 ming so'm etib belgilanib, 32 mln. so'm kam undirilgan [4].

Adabiyotlar sharhi. Bu borada xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilganimizda, masalan, Moldova Respublikasi FPKning 71-moddasida prokuror tomonidan qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan fuqarolik ishlarining ro'yxati belgilangan bo'lib, ushbu ro'yxatga davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishni talab etadigan ishlar kiritilgan [5].

Mazkur holatda prokurorga boshqa muhim toifadagi ishlar bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ishlar ham kiritilgan. Milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy tahlil etilganida bir muncha farq qiladi. Masalan, amaldagi FPKning 50-moddasida "Prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki prokurorning da'vo arizasi (arizasi) asosida qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin. Prokuror boshqa shaxslarning arizalari bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emas". Bundan ko'rinadiki, prokuror faqat o'zi kiritgan da'vo arizalar (arizalar) ko'rilishida hamda faqat qonunda nazarda tutilgan ishlardagina fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishtirok eta oladi.

Ekologiyaga yetkazilgan zararlarni undirish bilan bog'liq fuqarolik ishlari ko'rilishida muqaddam prokuror ishtiroki majburiyligi belgilanmagan edi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan sud qarorlariga nisbatan kim fikr beradi, ularning qonuniyligini va adolatligini kim o'rganadi, degan tabiiy savol tug'iladi. Chunki, bu mablag'lar davlat byudjetiga undirilayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, davlat manfaatlarini himoya qilish, uning barqaror iqtisodiyotga tayanishini ta'minlash hamda qonuniylikni mustahkamlash kabi vazifalar prokurorlar tomonidan Konstitutsiyamizda belgilangan vazifalarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

Chunki, sud qarorlaridan norozi bo'lib hech kim shikoyat qilmaydi. Shikoyat kelib tushmaganda esa, amaldagi FPKning 403-moddasida ko'rsatilgan "...shaxslarning murojaatlari mavjud bo'lgan taqdirda yoki prokuror ishtirokida ko'rilgan ishlar bo'yicha kassatsiya protesti keltirish to'g'risidagi masalani hal etish uchun tegishli suddan ishni talab qilib olishga haqli. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlari, viloyat prokurori, unga tenglashtirilgan prokuror va uning o'rinbosarlari FPK 419⁴-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning murojaatlari mavjud bo'lgan taqdirda yoki prokuror ishtirokida ko'rilgan ishlar bo'yicha taftish tartibida protest keltirish to'g'risidagi masalani hal etish uchun tegishli suddan o'z vakolatlari doirasida ishni talab qilib olishga haqli", degan talabga ko'ra ishni chaqirib o'rgana olmaydi hamda sud qaroriga nisbatan protest keltira olmaydi.

Amaldagi fuqarolik protsessual qonunchilik talablariga ko'ra qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini qayta ko'rib chiqish uchun sudga murojaat qilish vakolati ishda ishtirok etuvchi shaxslarga tegishli bo'lib, belgilangan muddatlarda ular tomonidan (apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida) shikoyatlar berilishi belgilangan. Ammo ishda ishtirok etayotgan shaxsning

sud qarorini ko'rib chiqishga qiziqishi yo'qolishi mumkin yoki jismoniy shaxs vafot etishi mumkin, yuridik shaxs huquqiy vorisi tugatilishi mumkin va hokazo. Tomonlar har doim ham sud qarorini bekor qilishdan manfaatdor emas.

Qonunchiligimizda qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini davlat manfaatlarini ko'zlab qayta ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan protsessual shaxs bo'lmasa, bu sud hujjatlarini qayta ko'rib chiqish deyarli imkonsiz.

Bizning fikrimizcha, bunday shaxs qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlovchi, davlat manfaatlarini himoya qiluvchi hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning xohish irodasini mustaqil ravishda himoya qila oladigan prokuror bo'lishi kerak.

Shu kabi O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1996 yil 20 dekabrda qabul qilingan [6] "Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 36-sonli Qarorining 11-bandida "Tabiatni muhofaza qilish haqidagi qonunlarni buzish bilan bog'liq fuqarolik, shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi da'volarni ko'rishda sudlar qonun zararni to'liq hajmda undirishni ko'zda tutishidan kelib chiqishlari shart. Zararni undirish miqdorini kamaytirishga faqat alohida hollarda sud tomonidan aniqlangan huquqbuzarning mulkiy ahvoliga qarab, jinoyat g'araz niyatda sodir etilmagan taqdirda, yo'l qo'yiladi va bu holat qabul qilingan qarorda asoslantirilgan bo'lishi shart"ligi belgilangan.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan sudlar tomonidan zarar miqdorini kamaytirishga asos sifatida olingan mazkur Plenum qarori ham aynan qaysi sudlarda zararni kamaytirishga yo'l qo'yilishi, davlatga undirilishi lozim bo'lgan zararni sudlar qanday asoslarga ko'ra kamaytirishi mumkinligi mavhum qolgan.

Shu kabi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 464-sonli [6] qaroriga 4-ilovasida esa "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriy davrida daraxtlar va butalarga yetkazilgan zarar uchun undirish summalari ikki baravarga oshirilgan holda qo'llaniladi" deyilgan. Bu ikki huquqiy hujjatlar mantiqan bir-biriga zid bo'lib, yetkazilgan zarar miqdori byudjetga undirilayotganligini hamda atrof muhitni himoya qilish kelajak avlodlar oldidagi har birimizning muqaddas burchimiz ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, Oliy sud Plenum qarorini takomillashtirish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Bizningcha, atrof-tabiiy muhitga yetkazilgan zararni undirish bilan bog'liq fuqarolik ishlarida prokuror ishtirokining asosiy xususiyati — bu uning faqat jinoiy emas, balki fuqarolik-huquqiy sohada ham davlat va jamoat manfaatlarini himoya qilish funksiyasini amalga oshira olishida namoyon bo'ladi. Mazkur faoliyatda prokuror faqat javobgarlik masalasini emas, balki zararni to'liq undirish va kelgusidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga e'tibor qaratishi lozim.

Bundan tashqari, xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili ham bu sohada prokuror nazorati ahamiyatini oshiradi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida ham "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga muvofiq, prokuror atrof-muhitga yetkazilgan zarar bo'yicha sudga murojaat qilish orqali davlat va jamoatchilik manfaatlarini himoya qiladi. Bunda u tegishli davlat organlarining harakatsizligi yoki huquqbuzarlik yuzasidan o'z vaqtida chora ko'rilmagan hollarda o'z vakolatini amalga oshiradi [7] deb ko'rsatilgan.

Bunda milliy qonunchiligimizda ham prokurorning bu sohada nazorati mavjud bo'lsada, vakolatli organlar tomonidan qonun talablari qo'pol ravishda buzilganligi va o'zlariga yuklatilgan vazifalar bajarilmayotganligini ko'rsatadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 49-moddasiga ko'ra, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ayrim shaxslar yetkazgan zarar o'rnini qoplashi shart.

Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi vakolatli organlar ushbu sohadagi munosabatlarni nazorat qilish, qonun buzilishi holatlarini aniqlash, munosabat bildirish va yetkazilgan zararlarni undirish choralari ko'rishga mas'ul hisoblanadi.

Tahlil va natijalar: Tahlillarga ko'ra, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi organlari tomonidan so'nggi uch yil 2022-2024-yillar mobaynida jami 66 504 ta tabiatga yetkazilgan zararlarni bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi aniqlanib, bayonnomalar rasmiylashtirilgan bo'lsada, ushbu huquqbuzarliklarning faqat 5 719 tasi bo'yicha (29,8 mlrd. so'm) zararlarni undirish choralari ko'rilmagan, xolos.

Qolgan 60 785 tasi bo'yicha tabiatga yetkazilgan zararlarni undirish choralari ko'rilmagan.

Prokuror ushbu turdagi ishlarga davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olib sudga qatnashishi lozim deb hisoblaymiz. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni (12-modda) va FPK asosida prokuror muayyan holatlarda, xususan, tabiatga yetkazilgan zarar jamoaviy manfaatlariga daxldor bo'lganida, fuqarolik ishlarini sudga ko'rishda da'vogar sifatida chiqish huquqiga ega. Biroq, FPKning 122-moddasi 1-qismi 6-bandi mazmuniga ko'ra, fuqarolik ishi muhokamasiga da'vogar kelmasa, sud arizani ko'rmasdan qoldiradi.

Aniqlanishicha, vazirlik organlarining mas'ul xodimlari sudlarga o'zlari bergan 2,6 mlrd. so'm zararni undirish haqidagi 137 ta da'vo arizalarni ko'rish vaqtida sababsiz sudga bormaganliklari uchun ko'rib chiqilmagan.

Oqibatda 2,6 mlrd. so'm tabiatga yetkazilgan zarar byudjetga undirilmasdan qolgan.

FPKning 123-moddasiga asosan, arizani ko'rmasdan qoldirish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga yangidan ariza bilan murojaat qilishga haqli.

Biroq, sudlar tomonidan ko'rmasdan qoldirilgan 201 ta 2,8 mlrd. so'm zararni undirish haqidagi da'vo arizalar bo'yicha ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi organlari tomonidan sudlarga qayta murojaat qilinmagan va zararlarni undirish choralari ko'rilmagan.

Buning oqibatida esa davlat byudjetga undirilishi lozim bo'lgan 2,8 mlrd. so'm undirilmasdan qolgan.

Bundan tashqari, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish respublikamizdagi har davlat organining asosiy vazifalaridan biri bo'lsada, sohaga mas'ul ekologiya va atrof — muhitni muhofaza qiluvchi vazirlik organlarining tegishli xodimlari tomonidan aniqlangan huquqbuzarliklar qasddan rasmiylashtirilmagan yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun 8 ta holatda 177,9 mln. so'mlik da'vo arizalar sudlar tomonidan asosli rad etilgan.

Misol uchun, fuqaro A.Ya. va S.A.ga nisbatan noqonuniy baliq ovlab, tabiatga 38,3 mln. so'm zarar yetkazilganligi holati bo'yicha kiritilgan da'vo ariza, fuqarolar ma'muriy javobgarlikka tortilmaganligi uchun rad etilgan.

Yuqoridagi kabi sud amaliyotida va mutasaddi idoralarda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish borasidagi, ya'ni davlat va jamiyat manfaatlariga daxldor ishlarni yuritishda byudjetga undirilishi lozim bo'lgan mablag'larni undirish choralari ko'rish bilan bog'liq sud qarorlaridan taraflar har doim ham manfaatdor bo'lavermaydi. Shuningdek, bu toifadagi ishlar ko'rilishida prokuror ishtiroki majburiyligini qonunchilikda mustahkamlash, odil sudlovni ta'minlashda sudlarga ko'maklashish, taraflarning mas'uliyatini oshirish hamda ularning odil sudlovga va qonunga hurmat va itoat bilan yondashish kabi profilaktik vazifalarni ham bir vaqtning o'zida amalga oshirish lozimligini ko'rsatdi.

Olib borilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalarida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi qonunbuzilishlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish hamda yetkazilgan zararlarni undirishni tashkil etish tartibini belgilash borasida Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori mavjud emasligi ma'lum bo'ldi.

Globalashuv jarayonlari va texnologiyalar jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda yangi O'zbekiston sharoitida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonunlarning ijro etilishini nazorat qilishga mas'ul bo'lgan prokuratura organlari faoliyatida, ayniqsa, yerga oid qonunbuzilishlar, ekologiyaga yetkazilgan zararlarni undirish bilan bog'liq ishlarda, zararlarni aniqlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va davlat idoralari o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, bu borada xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu borada Xitoy prokuratura organlarida Sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI deb yuritiladi) texnologiyalaridan unumli foydalanayotganligini alohida ta'kidlash joizdir.

Xitoy Xalq Respublikasining prokuratura organlari o'z faoliyatida SI texnologiyalarini jadal ravishda joriy etishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan². "Aqli prokuratura" nomli strategik dastur Xitoy Oliy xalq prokuraturasi tomonidan rasman ishga tushirilgan bo'lib, unda 2025-yil yakuniga qadar prokuratura faoliyatini to'liq raqamlashtirish va intellektuallashtirish maqsadi belgilab qo'yilgan.

SI qanchalar rivojlangan bo'lmasin, huquqni qo'llash amaliyotida inson o'rnini to'liq bosolmaydi. Xitoy prokuraturasida ochiq-oydin ta'kidlanishicha: "SI qanday yuksak darajaga chiqmasin, u adolatni ta'minlash sohasida insonni o'rnini almashtiruvchi emas, faqat adolatni ta'minlashda bir vosita xolos¹".

Fuqarolik protsessida SI ni qo'llash ayrim muammolarni keltirib chiqarishi, maxfiylik va javobgarlik masalalari, ma'lumotlarni muhofaza qilish borasidagi xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi mumkinligini e'tibordan chiqarish mumkin emas albatta.

Bu borada professor M.M.Mamasiddiqovning fikricha, "prokuratura organlarida SI ni qo'llash tajribasi foydali natijalar berishi mumkin. Xususan, ish yuritishning tezkorligini ta'minlash orqali huquqni qo'llash samaradorligini oshirib, qonun ustuvorligini ta'minlash va adolatga erishish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Biroq, bu borada Xitoy tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, huquqiy tartibga solish, axloqiy tamoyillar va inson omilini saqlash – bular SI adolat va haqiqat oldida tahdid emas, aksincha unga xizmat qiladigan vosita bo'lishi uchun muhim shartlardan hisoblanadi" [8].

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa shuki, amaldagi qonunchilikda ekologiyani himoya qilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, uni himoya qilish maqsadida sud qarorlarining qonuniyligi, asosliliigi hamda adolatliliğini ta'minlash uchun bu kabi toifadagi ishlarni sudlarda ko'rilishida prokuror ishtiroki masalalarini qayta ko'rib chiqish, bunda tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlarga mo'ljallangan yerlar – muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlarga oid nizolar, suv fondi yerlari – davlat muhofazasidagi suv obyektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratiladigan mintaqadagi yerlar bo'yicha nizolar, o'rmon fondi yerlari – o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlarga oid nizolar, tarixiy — madaniy ahamiyatga molik yerlar – moddiy madaniy meros obyektlari bilan bog'liq ishlarda prokuror ishtiroki majburiyligini qonunchilikda aniq belgilash hamda takomillashtirish, ayniqsa tabiatga yetkazilgan zararlarni aniqlashda idoralararo ma'lumotlar almashinuvini integratsiya qilish, sud jarayonlarini soddalashtirib, sud majlislarida masofaviy qatnashish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli Farmoni [9]ga asosan sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, sud ishlarini yuritishda qog'oz shaklidan voz kechish maqsadida "Raqamli sud" konsepsiyasi asosida ishlarning yuritilishini bosqichma-bosqich to'liq elektron shaklga o'tkazish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan interaktiv elektron xizmatlar turlarini oshirib borish, sud hujjatlaridan nusxa olish, sud ishlari bilan tanishish, arizaning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliliğini aniqlash, sun'iy intellekt yordamida sud xarajatlarini hisoblash imkoniyatini yaratish, shuningdek, sud tomonidan taqiqlangan manba va kontaktlarning elektron reyestrini yuritish, sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur texnik infratuzilma yaratish, ushbu yo'nalishda normativ huquqiy bazani takomillashtirish choralari ko'rish bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish hamda yetkazilgan zararlarni undirish bilan bog'liq fuqarolik ishlari ko'rilishiga oid sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy sud Plenum qarorini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish lozim bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". Toshkent. 2023 yil 20-B.
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2024y., 03/24/904/0102-son
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror ishtirokini ta'minlash boshqarmasi umumlashma ma'lumotnomalari // 2024 yil yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlash boshqarmasi umumlashtirishi. 2022-2023 yillar tahlili.
5. Mamasiddiqov M.M., Shayzakov Sh.I., Shamshidinov U.T. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlash masalalari // Ilmiy-amaliy qo'llanma. – Toshkent, 2020. 43- b.
6. [@huquqiyaxborot](https://Lex.uz)
7. Kozlova N.Yu. Ekologicheskoe pravo Rossii. – M.: Norma, 2020. – S. 193–195
8. Mamasiddiqov M.M. "Xitoy prokuratura organlarida sun'iy intellektni joriy eish: tajriba, muammo va chaqiriqlar". "Odil sudlov". Huquqiy, ilmiy-amaliy nashr. 2025 yil

- 10.04.China launches artificial intelligence platform to boost judicial efficiency // <https://www.chinadaily.com.cn/a/202412/02/WS674di673a310fi265ald0785.html>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 avgustdagi "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-140-sonli Farmoni./ <https://lex.uz/docs/7696567>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 9 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).